# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

7

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

7491
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 490 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Resp. Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universititi rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan ........ 6
**Raekwon Chung**, Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari........ 8
**Nodira Shotursunova,** Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari ........ 12
**Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich,** t.f.n., dotsent

Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari........ 16
**Egamov Zoxid Baxtiyarovich,** bosh mutaxassisi

Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development ........ 26
**Muratova Muzayana,** Teacher

Анализ состояния применения механизма инновационного управления
инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли........ 34
**Кучаров Аброр Сабиржанович,** профессор; **Динара Нурмамад кизи Ишманова,** доцент; **Тю Константин Геннадьевич,** соискатель

Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills

of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy ........ 39
**Nargiza Samandarova Muxammadovna,** Teacher

The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy........ 47
**Ikromov Sayidolim,** Teacher

O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari........ 54
**Rasulova Nigora Yusupovna,** kafedra assistenti

Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati........ 58
**Jontemirova Iroda Ikrom qizi,** talaba

Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni ........ 61
**Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna,** talaba

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati........ 64
**Raxmanov M. A.,** tayanch doktorant

Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education........ 68
**Tukhtaeva Shakhnoza,** Teacher

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari........ 75
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** kafedra dotsenti; **Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli,** tayanch doktoranti

Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash ........ 79
**Berkinov Bozorboy,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor; **Qulmatova Sayyora Safarovna,** PhD; **Ruxsatova Rushana O'ktamovna**, erkin tadqiqotchisi

O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari ........ 86
**Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari........ 97
**G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich,** i. f. d., professor; **Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich,** i. f. f. d. (PhD)

Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari........ 102
**Raxmanov Mexridin Sindarovich,** kafedra dotsent v. b.

Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi ........ 106
**Ortiqov Uyg'un Davlatovich,** kafedra dotsenti, i.f.n.

Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания ........ 115
**Марданова Барно Асатуллоевна,** докторант

Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan........ 119
**Aziz Zikriyoev,** PhD

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya
va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi........ 129
**Kambarova Sh. M.** i.f.b.f.d. PhD

Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti
va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari........ 134
**Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna,** dotsent

Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida
mehnat samaradorligini oshirish yo'llari ........ 139
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; **Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna,** talaba

Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli ........ 147
**Norov Akbar Ruzimamatovich**

O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni
mahalliylashtirish jarayonlari tahlili ........ 151
**Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich,** i.f.f.d.(PhD)

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS


Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli ........ 158
**Xudayarova Maftuna Shavkatovna,** tayanch doktorant

Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi ........ 164
**Karimova Shirin Zoxid qizi,** tayanch doktorant

Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash ........ 168
**Shakirova Nigora Axralovna,** kafedra dotsenti v.b.

Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida ........ 172
**Raximbayev Akmal Azatboyevich,** mustaqil tadqiqotchi

Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management ........ 177
**Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna,** PhD

Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati ........ 182
**Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li,** tayanch doktorant

Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati ........ 186
**Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich,** mustaqil izlanuvchi

Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari ........ 195
**Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li**

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi ........ 199
**Abduturapova Dildora Farxodjon qizi,** tayanch doktorant

Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili ........ 205
**Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich,** 3 st year doctoral student

Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili ........ 210
**Tashmuxamedova Yayra,** tadqiqotchi

Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance ........ 213
**Rakhimova Gulnoza,** Teacher

Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия) ........ 218
**Искендир Аккуралай Абдиуалиевна,** докторант

Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri ........ 222
**Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna,** kafedra dotsenti; **Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi**

Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны ........ 228
**Суюнова Фотима Баходир кизи,** базовый докторант

Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги ........ 233
**Рашидов Рахимжон Искандарович,** в.и.о доцента; **Якубова Шамшинур Шухратовна,** к.э.н., доцент, докторант (DSc)

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni ........ 240
**Nomozova Qumri Isoyevna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari ........ 248
**Nazarov Qilich Xolmuradovich,** kafedra assistenti

Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni ........ 255
**Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari ........ 262
**Do'sanov Doniyor,** magistr

Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar ........ 269
**N. N. Ro'ziyev**

Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan ........ 277
**Sattorova Nasiba G'anijon qizi,** Teacher

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati ........ 284
**Murodova Dilnoza Choriyevna,** PhD

Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish ........ 288
**Gadoyev So'hrob Jumakulovich,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari ........ 295
**M. A. Saparova,** talaba

Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров ........ 299
**Очилова Хилола Фармоновна,** к.э.н., доцент

Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development ........ 304
**Vafoyeva Dilafruz,** Teacher

O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari ........ 311
**Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li,** katta o'qituvchisi, PhD

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili ........ 316
**Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna,** tayanch doktorant

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari ........ 323
**Xalilova Nafisa Komilovna,** magistrant

Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba ........ 327
**Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li,** tayanch doktarant

Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров ........ 334
**Джурабаев Отабек Джурабаевич,** доцент кафедры

Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана ........ 341
**Фаттахова Муниса Абдухамитовна**

Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri ........ 349
**Jumabayeve Akmole Sheraliyevich,** magistrant

Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег ........ 354
**Бахромов Мирзаахмад Рустам угли,** студент; **Абдикаримова Динара Рустамхановна,** научный руководитель, д. э. н. (DSc)

Systematic mapping study of higher education in green development context ........ 361
**Asqarova Feruza Abdullaevna,** Senior Teacher

O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari ........ 368
**Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li,** kafedra o'qituvchisi; **Shaymanova Nigora Yusupovna,** tayanch doktoranti

Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации ........ 373
**Д. К. Исмагилов,** кандидат педагогических наук, доцент

Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development ........ 377
**Shodmonkulova Shahlo,** PhD student

Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi ........ 384
**Mamatov Sardor Axmatjonovich,** mustaqil tadqiqotchi

Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari ........ 390
**Voxidov Oybek Rozikovich,** mustaqil tadqiqotchisi

Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy ........ 398
**Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli,** Teacher

Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari ........ 406
**Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna**, mustaqil izlanuvchi (PhD)

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligini ta'minlash yo'llari ........ 411
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**

Addressing the Training Needs of Tourism Staff for Sustainable Practices in the Green Economy Era ........ 415
**Dadamuxamedova Mushtariy**

**Стратегия сокращение бедности и повышения благосостояния населения** ........ 422
**Хайитов Шербек Наимович, Кандидат экономических наук, доцент**

**Inson kapitaliga investitsiya kiritishning ilg'or xorij tajribalari va ularni O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari** ........ 430
**Axmadalieva Niholaxon, Toshkent moliya instituti o'qituvchisi**

Пути применения цифровых технологий в организации мониторинга деятельности высших учебных заведений Республики Узбекистан ........ 436
Садиков Шохрух Шухратович, Независимый исследователь

**Fundamentals of creating the infrastructure for the use of e-commerce platforms in the digital economy system of Uzbekistan** ........ 441
**Sodikova Dilafruz Zokhid qizi, manager**

Sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxona marketing miks va korporativ imij bilan tizimli munosabatlar modeli ........ 449
**Eshmatov Sanjar Azimkulovich, i.f.f.d.(PhD)**

Kambag'allikni qisqartirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining tutgan o'rni ........ 456
**Baratov Sa'dulla Norjigitovich, TDIU Samarqand filiali tayanch doktoranti**

Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies ........ 460
**Nosirova Charos,** Teacher, Tashkent State University of Economics

Qorako'lchilik tarmog'i samaradorligini oshirishda agroturistik xizmatlarning o'rni va ahamiyati ........ 468
**Ж.Я.Нуриллаев, i.f.n. dotsent**

**O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning hozirgi holati tahlili** ........ 474
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, i.f.n. dotsent**

**Davlat ulushini xususiylashtirishda investorlar faolligini ta'minlash yo'llari "uzauto motors" aj ipo amaliyoti misolida** ........ 481
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsent, PhD

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

# KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING TUTGAN O‘RNI



Baratov Sa’dulla Norjigitovich
TDIU Samarqand filiali tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni tahlil qilingan hamda uning amaliy ahamiyatini asoslashga xizmat qiladigan tavsiyalar, xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiya, kambag‘allik, ijtimoiy himoya, davlat budjeti.

Аннотация: В статье анализируется роль организаций дошкольного образования, действующих в нашей стране, в снижении бедности и формулируются рекомендации и выводы, служащие обоснованию ее практической значимости.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитание, бедность, социальная защита, государственный бюджет.

Abstract: The article analyzes the role of preschool education organizations operating in our country in reducing poverty and formulates recommendations and conclusions that serve to substantiate its practical significance.

Key words: preschool education, upbringing, poverty, social protection, state budget..

## KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta’limning kambag‘allikni qisqartirishdagi muhim va ajralmas o‘rnini ko‘plab olimlar, xalqaro moliya institutlari hamda siyosatchilar ta’kidlab kelishmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zining kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqida kichik yoshdagi bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan ta’minlash borasida qator muammolar mavjudligini ta’kidlab, ko‘plab mamlakatlarda qariyb 200 million bola maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagani natijasida ularning boshlang‘ich bilim olish imkoniyatlari cheklanayotganligini bildirdi[1].

Shuningdek, Prezidentimiz o‘z nutqida mamlakatimizda bu borada olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalari bilan qamrab olish ko‘rsatkichi 27 foizdan 70 foizgacha ko‘tarilganligini ta’kidlab o‘tdi.

Bizningcha, davlat rahbarining mazkur masalaga qaratayotgan e’tibori ta’limning kambag‘allikni qisqartirishdagi ahamiyati tahlilini aynan maktabgacha ta’limdan boshlash lozimligini ko‘rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiyalik olim N.Fedina maktabgacha ta’lim tizimining samaradorligini baholashni xarakterlovchi to‘rtta ko‘rsatkichni ko‘rsatib o‘tgan[2]:

- aholining maktabgacha ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabini inobatga olgan holda davlat kafolati asosida

maktabgacha ta’limni ta’minlash;

- bolalarga ta’lim berish va boshqa xarajatlarni amalga oshirish shart- sharoitlari;
- kadrlar potensiali;
- budjetdan moliyalashtirish va moliya-xo‘jalik faoliyati.

B.Abidovning ta’kidlashicha Buyuk Britaniya ta’lim berish tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri deb hisoblanadi. Britaniya ta’lim dasturlari eng yuqori standartlarga mos keladi. Buyuk Britaniyada maktabgacha ta’lim berish kambag‘al ishchi oilalar bolalariga ko‘ngilli yordam berish harakatiga asosan vujudga kelgan[3].

N.Norqobilovning tadqiqotida ta’lim tizimi ikki muhim vazifani bajarishi qayd etib o‘tilgan: birinchidan, inson shaxsini taraqqiy ettirish, takomillashtirish, uni ma’naviy, axloqiy, badiiy jihatdan rivojlantirish, ma’naviy komil, har tomonlama barkamol inson bo‘lib yetishishiga yordam berish; ikkinchidan, iqtisodiy vazifani bajarib, malakali ishchi kuchini takror ishlab chiqarish[4].

Yuqoridagi fikrlardan ma’lumki, inson kelajagida bolalikda olingan bilimlar sezilarli va hal etuvchi xususiyatga ega. Fikrimizcha, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatining dolzarbligi mazkur xulosalar bilan yana bir bor tasdiqlanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi bo‘lib, O‘zbekistondagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni tahlili asosida ilmiy-nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Tadqiqotda me’yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va umumlashtirish natijalari bilan belgilandi.

Mavzuni o‘rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sifatli maktabgacha ta’lim xizmatlari ko‘rsatishning asosiy maqsadi, bir tomondan bolalarning birlamchi bilimlarga ega bo‘lgan va sog‘lom holda ta’limning keyingi bosqichi hisoblangan maktabga tayyorlash bo‘lsa, boshqa tomondan bolalarning onalarini ya’ni ayollarning ham sog‘ligi va jamiyat xayotidagi muhim o‘rnini mustahkamlashga ko‘maklashishdir. Shu bilan birga bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi ayollarni jamiyatga qo‘shimcha ishchi kuchi sifatida integratsiyalashuvi orqali pirovardida gender tengligini ta’minlashga katta hissa qo‘shadi.

Shu ma’noda, bizningcha maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati va uning qamrovi masalasi bugungi kunda kambag‘allikni qisqartirishning yaqin va uzoq istiqboli uchun favqulodda muhim hisoblanadi.

**1-jadval**

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati to‘g‘risida ma’lumot**

| Ko‘rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 |
|---|---|---|---|---|---|
| **Jami maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni, birlik** | **5186** | **6381** | **6968** | **7753** | **7868** |
| shahar joylarida | 3139 | 3500 | 3779 | 4151 | 4129 |
| qishloq joylarida | ٢٠٤٧ | 2881 | 3189 | 3602 | 3739 |
| **Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida joylar soni, ming birlik** | **٧٣٣,٩** | **807,2** | **945,5** | **1155,7** | **1260,3** |
| shahar joylarida | 503,5 | 526,0 | 603,4 | 674,1 | 714,0 |
| qishloq joylarida | 230,4 | 281,2 | 342,1 | 481,6 | 546,3 |
| **Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar soni, ming kishi** | **732,9** | **874,4** | **1115,4** | **1196,4** | **1321,4** |
| shahar joylarida | 517,2 | 566,1 | 674,8 | 685,3 | 735,6 |
| qishloq joylarida | 215,6 | 308,3 | 440,6 | 511,1 | 585,8 |
| **Pedagog xodimlar soni - ming kishi** | **63,3** | **81,1** | **96,5** | **106,8** | **117,0** |

1-jadvalda maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 2017-2021 yillarda o‘sib borgan. Jumladan, 2017 yilda maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 5186 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021 yilga kelib 7868 taga yoki 2017 yilga nisbatan 1,5 barobarga o‘sgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining o‘sishida maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil etilishi katta rol o‘ynagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son farmoni bilan Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi va uning asosiy vazifalari belgilandi. Mazkur vazifalar ijrosi natijasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni va sifati ortib bordi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining shahar va qishloq joylardagi ulushiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak (1-rasm) jami maktabgacha ta’lim tashkilotlari soniga nisbatan shahar joylardagi tashkilotlar ulushi kamayib borayotganligini va aksincha qishloq joylardagi tashkilotlar ulushi ortib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.




1-rasm. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining shahar va qishloq joylardagi ulushi[6]

Jumladan, 1-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, 2017 yilda jami maktabgacha ta’lim tashkilotlari soniga nisbatan shahar joylardagi tashkilotlar ulushi 60,5 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib bu ko‘rsatkich 52,5 foizgacha tushgan ya’ni 8 foizga kamaygan. Qishloq joylardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining jami maktabgacha ta’lim tashkilotlari soniga nisbatan ulushi 2017 yilda 39,5 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib keskin o‘sgan va 45,1 foizga yetgan. 2019-2021 yillar oralig‘ida esa o‘sish davom etgan bo‘lsada, u keskin tus olmagan. Masalan, 2019 yilda qishloq joylardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining jami maktabgacha ta’lim tashkilotlariga nisbatan ulushi 45,8 foizni, 2020 yilda 46,5 foizni va 2021 yilda 47,5 foizni tashkil qilgan.

Lekin shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, qishloq joylardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining jami maktabgacha ta’lim tashkilotlariga nisbatan ulushidagi o‘sish mamlakatimizdagi ko‘plab hududlarga shahar maqomini berilishi jarayonida yuz bermoqda va bu bizningcha qishloq joylarda tashkil etilayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ulushi aslida bundan ham ko‘proq bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

Shunday bo‘lsada, ular sonidagi o‘zgarishlar doimiy o‘sib borish tendensiyasiga ega. Bizningcha, shahar va qishloq joylardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ulushidagi o‘zgarishlar shaharlarda tashkilotlar sonining kamayib ketayotganligini emas balki, qishloq joylarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni shaxardagiga nisbatan jadalroq o‘sayotganligini ko‘rsatmoqda.

1-jadvaldagi yana bir ma’lumot maktabgacha ta’lim tashkilotlarida joylar sonidir. Joylar soni statistikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak ularning ham keskin o‘sib borganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan,

2017 yilda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida joylar soni 733,9 mingni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib qariyb 1,3 mlnni tashkil etgan yoki 2017 yilga nisbatan 171,7 foizga ko‘paygan.

Shahar joylardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida joylar soni

2017 yilda 503,5 mingni tashkil qilgan bo‘lsa 2021 yilda 714 mingni tashkil qilib, 210,5 ming o‘ringa yoki 141,8 foizga ko‘paygan. Qishloq joylardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida joylar soni esa 2017 yilda 230,4 mingni, 2021 yilda esa 546,3 mingni tashkil etib, 2017 yilga nisbatan 315,9 ming o‘ringa yoki 237,1 foizga ortgan.

Ushbu ma’lumotlarni 1-jalvadning birinchi qismi bilan bog‘lab tahlil qiladigan bo‘lsak, har bir shahar joylard-

agi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 2017 yilda 160 ta joylar to'g'ri kelgan bo'lsa, 2021 yilga kelib ular soni qariyb 173 taga yetgan. Xar bir qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 2017 yilda 112 joylar to'g'ri kelgan bo'lsa, 2021 yilga kelib ular soni 146 taga yetganligini ko'rishimiz mumkin.

Bizningcha, mazkur tahlillardan shunday xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi joylar soni nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonidagi o'sish hisobiga balki mavjud quvvatlarni kengaytirish hisobiga ham o'sib borayotgan ekan.

Shuningdek, 1-jalvadda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar soni to'g'risida ham ma'lumotlar berilgan bo'lib, unga ko'ra,

2017 yilda 732,9 ming nafar bola maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bo'lsa, 2021 yilga kelib ular soni 180,0 foizga o'sgan va 1,3 mlnga yetgan. Fikrimizcha, e'tiborli jihati shundaki 2021 yilda qamrab olingan bolalar soni umumiy joylar sonidan ortgan va qariyb 105,0 foizga yuqori. Shahar joylarda bu ko'rsatkich 103,0 foizni, qishloq joylarda 107,0 foizni tashkil etmoqda.

Mazkur holatni 2017 yil bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, qamrab olingan bolalar soni (732,9) umumiy joylar sonidan (733,9) kam bo'lib, qamrov foizi 99,8 foizni tashkil qilgan. Shahar joylarda bu ko'rsatkich 102,0 foizni, qishloq joylarda 93,5 foizni tashkil etgan. Ya'ni shahar joylarda 2017 yilda ham joylardan ko'proq bola qamrab olingan bo'lsa qishloq joylarda bu aksincha bo'lgan.

Lekin, 2021 yilga kelib aksincha joylar soniga nisbatan qamrov ko'rsatkichi qishloq joylarda 107,0 foizni tashkil etib, shahar joylarga nisbatan (103,0 foiz) ko'proq o'sgan. Mazkur tahlillar qishloq joylarda maktabgacha ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

Pedagog xodimlar soni ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni va ularning qamrovi darajasiga to'g'ri proporsional ravishda keskin o'sib bormoqda. Xususan, 2017 yilda ular soni 63,3 mingni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yilga kelib 117,0 mingtani yoki 2017 yilga nisbatan 185,0 foizni tashkil etmoqda.

Bizningcha, maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar kambag'allikni qisqartirishda katta rol o'ynaydi va bunda nafaqat qamrovga balki maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sifati va inklyuzivligini oshirishga e'tibor qaratish lozim.

## XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillardan quyidagi asosiy xulosalarini keltirib o'tishimiz mumkin:

- bizningcha, maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar kambag'allikni qisqartirishda katta rol o'ynaydi va bunda nafaqat qamrovga balki maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sifati va inklyuzivligini oshirishga e'tibor qaratish lozim.
- ta'lim tizimining bosh bo'g'ini sifatida maktabgacha ta'limning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil qilish va ularning metodik hamda moddiy imkoniyatlarini oshirish amalga oshirilmoqda. Fikrimizcha, sifatli maktabgacha ta'lim xizmatlari ko'rsatish orqali nafaqat bolalarni birlamchi bilimlarga ega bo'lgan va sog'lom holda ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlashga balki bolalarning onalarini ya'ni ayollarning ham sog'ligi va jamiyat xayotidagi muhim o'rnini mustahkamlash orqali gender tengligini ta'minlashga erishiladi

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Мирзиёев Ш.М "Кичик ёшдаги болаларни тарбиялаш ва таълим бериш бўйича иккинчи Бутунжаҳон конференцияси очилиш маросимидаги нутқи". 2022 йил 15 ноябр Интернет манба: www.president.uz Мурожаат қилинган сана 2022 йил 3 декабр.
2. Федина Н.В. Организационно-педагогические условия повышения эффективности муниципальной системы дошкольного образования: автореферат … к.п.н. – Елец.: ЕлГУ им. И.А.Бунина, 2005. С. 24
3. Б.Абидов.Мактабгача таълим (хорижий мамлакатлар тажрибаси).Интернет манба: cyberleninka.ru/article/n /maktabgacha-talim-horizhiy-mamlakatlar-tazhribasi 2017 йил 4-бет
4. Норқобилов Н.Н. Таълим тизимини бюджетдан ташқари молиялаштириш ва кадрлар тайёрлашда маркетингнинг ўрни. //Замонавий таълим журнали. – Т., 2017.8-сон. 36-40-б.
5. Давлат Статистика қўмитаси маълумотлари. Интернет манба: www.stat.uz.
6. Расм 1-жадвал маълумотлари асосида тайёрланди.
7. Ш.Мирзиёев. "Ўзбекистоннинг камбағалликни қисқартиришга қаратилган чоратадбирлар" тўғрисидаги маърузаси. 2020 й.
8. В.С.Сычева. «Бедность и её измерение», Социология:4М, 2012, №15 с.129
9. М.Пардаев, О.Пардаев. «Мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари». Логистика ва иқтисодиёт журнали 2020 й
10. Жумаев Н.Х., Раҳмонов Д.А. Жаҳон иқтисодиётининг янги инқирози – иқтисодий ҳаракатсизлик. 2020 йил 3 апрель. Манба: https://www.review.uz/

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 7**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi 26-uy.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS